



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-mart

VII-7-36-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tumanda “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, xizmat va qishloq xo'jaligi sohalarida amalga oshiriladigan drayver loyihalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish va ma'qullash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-223-son farmoniga muvofiq Kattaqo'rg'on tumanida 2025-yilda “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida “drayver” loyihalar shakllantirilib, mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun infratuzilma obyektlarini qurish va ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari bo'yicha kiritilgan takliflar va manzilli ro'yxatlarini tasdiqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-223-son farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 03/1-3183-sonli topshiriq xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'latovning 2025-yil 25-fevraldagi 02-02/102-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Tumanda 2025-yilda “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida drayver loyihalarni amalga oshirish bo'yicha infratuzilma obyektlarini qurishning dastlabki manzilli ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “Qoradaryo” elektr tarmoqlari (J.Alimov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (M.Rasulov) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov) loyihalarni o'z vaqtida, tizimli va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklantilsin.

Bunda, dastur doirasida ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha quyidagi qat'iy choralarni ko'rsin:

- loyihalar doirasida obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar har bir jarayonni to'liq nazoratga olish;

- buyurtmachilar hamda loyiha va pudrat tashkilotlari o'rtasida o'z vaqtida va o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzilishi, ularning moliyalashtirilishi;

-qurilish jarayonida mualliflik, texnik va davlat nazorati olib borilishini, bu borada aniqlangan kamchiliklar bo'yicha berilgan yozma ko'rsatmalar va ularni bajarilishi;

-bajarilgan ish hajmlari bo'yicha to'lovga topshirilgan dalolatnomalar haqqoniyligini texnik nazoratchi va qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi xodimlari ishtirokida o'rganib borilishi;

-qurilish va obodonlashtirish ishlari bo'yicha muammolarni aniqlab, bartaraf qilib borilishi;

-bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha topshirilgan dalolatnomalarning haqqoniyligiga alohida e'tibor bergan holda, qo'shib yozish, sifatsiz ishlarni aniqlash va ularni joyida bartaraf etish;

-aniqlangan har bir qo'shib yozish va sifatsiz ishlar bo'yicha ma'lumotnoma tuzish, qonun buzilish holatlari yuzasidan huquq-tartibot idoralariga ma'lumot taqdim etib borilishini ta'minlash.

5. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (L.Raxmonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda infratuzilma obyektlarida amalga oshirilayotgan qurilish ishlari yuzasidan har oyda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari L.Raxmonov, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Rasulov), xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (M.Xolova) bilan birgalikda A.Navoiy mahallasidan o'tuvchi asosiy ko'chaning chetiga o'rnatiladigan lotoklarda suv oqimining to'planmasligi oldini olish bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilsin.

7. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov) ilovadagi "drayver" loyihalarni amalga oshirilishini muntazam ravishda monitoring qilib borish, yuzaga kelgan muammolarni hal etish bo'yicha tuman hokimligiga takliflar kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov) ishga tushirilgan loyihalar doirasida yaratilgan yangi ish o'rinlariga mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni, shuningdek, kambag'al oila a'zolarini ishga joylashtirish va "Yangiish.mehnat.uz" platformasiga kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

9. Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli deputatlari O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonuniga asosan loyihalarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik nazoratini o'rnatilsin.

10. “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov) ijtimoiy tarmoqlar orqali va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida mazkur qarorni bajarilishini yoritib borilishini ta’minlasin.

11. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev), Agrar suv xo‘jaligi va eklogiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova) va tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, L.Raxmonov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 5-martdagi
VII-7-36-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "DRAYVER" loyihalarni
amalga oshirish uchun
DASTLABKI MANZILLI RO'YXATI**

T/r	Loyiha soni	"Drayver" loyihalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni	Yo'nalish nomi	Ish turi	Loyiha quvvati jami		shu jumladan		Loyiha (ob'ekt) ning dastlabki qiymati (mln so'm)	shundan	
								O'lc hov birli gi	Miqd ori	yang i quril ish	rekon - struk siya		Respub lika budjeti	Maha lliy budje t
	4	Kattaqo'rg'on t		x	5	x	x	x	x	x	x	7 022,0	7 022,0	
1	1	Mundiyon mahallasi hududidagi "Boyraz Tekstil" MCHJ xorijiy korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan	Mundiyo n MFY	Elektr tarmoqlari tortish	1	Elektr tarmoqlari tortish	Sip kabel tortish (yangilas h)	km	7,0	7,0		600,0	600,0	

		tikuv trikotaj fabrikasini zarur infratuzilma bilan ta'minlash orqali yangi sanoat korxonasini tashkil etish.													
2	1	Tuman hududidan o'tgan M-37 avtomagistral yo'lining 1 km qismida 2 gektar yer maydonini 50 ta lotlarga bo'lib, auksion savdolariga chiqarish orqali savdo va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish.	Navbahor MFY, Zarqo'rg'on MFY, Qoradar yo MFY	Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	1	Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	Piyodalar yo'lakchasi qurish	km	1,0	1,0		300,0	300,0		
						Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	Ko'cha chiroqlari o'rnatish	dona	40,0	40,0		250,0	250,0		
				Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	1	Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	Kollektorlarni ko'mish hamda zovurlarni yopiq shaklga o'tkazish	km	1,0	1,0		1 200,0	1 200,0		
3	1	Tuman markazidan o'tuvchi M.Ulug'bek,	M.Ulug'bek MFY, Charog	Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	1	Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	Piyodalar va veloyo'lak qurish	km	2,4	2,4		792,0	792,0		

		Charog'on, A.Navoiy mahalalari hududidan o'tuvchi A.Navoiy ko'chasining 2 km qismini 24/7 rejimida tun-u kun ishlaydigan savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyatini kengaytirish.	'on MFY, A.Navoi y MFY				Ko'cha chiroqlari o'rnatish	dona	60	60,0		480,0	480,0	
							Lotok o'rnatish	km	4,8	4,8		1 400,0	1 400,0	
4	1	"Kumushkent" mahallasi hududidan o'tuvchi 4R-54 "Kattaqo'rg'on- Ingichka" avto mobil yo'li bo'yida jami 5 gektar yer maydon (shundan sotuvda turgani 1,8 gektar) infratuzilmasini yaxshilash orqali	Kumush kent MFY	Elektr tarmoqlari tortish	1	Elektr tarmoqlari tortish	35/6 - podstansi ya o'rnatish	dona	1	1,0		2 000,0	2 000,0	

[illegible]